



TURIZMNING BUGUNGI KUNDA TUTGAN O'RNI

Nurillayeva Sevinch Nurmamat qizi
Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi

Annotatsiya: O'zbekiston iqtisodiyoti ko'p tarmoqli bo'lib turli xil tarmoqlarni o'zida birlashtiradi. Ularning har birini o'z vazifasi maqsadi bor. Shular ichidagi bugungi kunda respublikamizda eng rivojlanib borayotgan mo'may daromad keltiradigan soha turizm sohasi hisoblanadi. Ushbu maqolada turizmning O'zbekistonda tutgan o'rni haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, turizm, eksport, ijtimoiy soha, ichki turizm, tashqi turizm.

KIRISH

Turizm boshqa sohalarga nisbatan tez taraqqiy etayotgan manbadir, chunki bu soha talab uchun unchalik katta investitsiyani jalb qilmasdan ham yaratish mumkin bo'ladi. Boshqa sohalar, jumladan havo, temiryo'l, avtomobil transporti, ovqatlanish va savdo shahobchalari, mehmonxonalar rivoj topsa o'sha joyda turistik ob'ektlar mavjud bo'lsa bemalol turizmni rivojlantirish mumkin.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Turizm bugungi kunda tez rivojlanayotgan va daromadi bo'yicha yetakchi sohalardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda turizm jahon eksportida o'zining ulkan hissasiga ega bo'ldi va butunjahon yalpi ichki mahsulotining 11%ini tashkil qilmoqda. So'nggi 40 yil davomida boshqa mamlakatlarga tashrif buyuruvchi turistlar soni 20 martaga turizmdan keluvchi daromad 60 martaga oshdi va xalqaro turizmdan olinuvchi daromad 400 mlrd dollarga etdi. Xususan, O'zbekistonda erishilayotgan muvaffaqiyatlar zaminida iqtisodiyotni liberallashtirishni chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiyalash, barcha sohalarni, xususan, hizmat ko'rsatish sohasining etakchi tarmoqlaridan biri bo'lgan turizmni ham barqaror rivojlantirish yotibdi. Turizm mutaxassislarining fikricha, u XXI asrda dunyo miqiyosida eng ustuvor foyda keltiruvchi sohaga aylanadi. Hozir u dunyoni qayta tiklash avtomobil va neftni qayta ishlashni boshlashdan keyin o'rinni egallab turibdi. Bu soha dunyo sanoat va qishloq xo'jaligidan o'zib ketdi. Turizmning tez suratda rivojlanishiga yana bir sabab, u yuqori darajada ilmiy tadqiqot harajatini (naukoyomkiy) vani ko'p sarflaydigan (energoyom sarflaydigan) texnologiyani talab qilmaydi, ba'zi tarmoqlari bor ularda esa aksincha zamonaviy taraqqiyot ham, turizmni rivojlantirishda o'z o'rniga ega.

TADQIQOT NATIJALARI

Turizmning yuqori daromad keltiruvchi soha bo'lganligi tufayli ko'plab davlatlar va tadbirkorlar uning rivojlanishi uchun katta e'tibor beradilar. Ular yangi-yangi mehmonxonalarni qurmoqda, eskilarini rekonstruksiya qilib ta'mirlamoqda, ular ham jahon standartlariga moslashtirmoqda. Bunga birgina Samarqand shahrida o'nlab shahsiy mehmonhonalarni misol keltirish mumkin. Ular hech kimning ta'ziqi yoki ko'rsatmasisiz

o‘z tashabbuslari bilan belgilangan ob‘ektivdir. Maqsadi shu sohani rivojlantirib katta foyda olish. Bu esa o‘z foyda, turizmni rivojlantirish uchun eng muhimdan biridir.

MUHOKAMA

Turizmni rivojlantirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev parlamentga Murojaatida barcha sohalar qatorida turizm sanoati borasida quyidagi fikrlarni bildirdi: «Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. O‘zbekiston turizm sohasida dunyo bo‘yicha ulkan salohiyatga ega bo‘lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7300 dan ortiq madaniy meros obektlari mavjud va ularning qariyb 200 tasi YuNeSKO ro‘yxatiga kiritilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizning betakror tabiati, go‘zal dam olish maskanlari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo‘nalishlar ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, biz ziyorat turizmi, ekologik, ma‘rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratishimiz zarur. Bu borada davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini qo‘llash sohani taraqqiy ettirishda keng imkoniyatlar ochishini hisobga olishimiz lozim» Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilish dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to‘liq ishga solish lozim» deb o‘z nutqida aytib o‘tilgan. Turizm O‘zbekiston iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan eng asosiy tarmoq sifatida o‘z mavqeiga hamda o‘rniga egadir. Turizm nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy soha hamdir. Buning iqtisodiy samaradorligi bilan birga ma‘naviy, ruhiy va intellektual ahamiyati ham juda katta. Shu tufayli ushbu sohaga davlat alohida e‘tibor berib, ma‘lum imtiyozlar ham belgilaydi. Odamlar bu imtiyozlardan faqat turist bo‘lganliklari uchun foydalanadilar. Bu ham turizmning o‘ziga xos xususiyati va katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatidan dalolat beradi. Imtiyozlar turistlarning bojxona postlaridan o‘tishda, soliq to‘lashda, chetga chiqishda pasportiga ruxsat berishlarida, avia va temir yo‘l transportlariga chiptalar olishda, ularni rasmiylashtirishlarda namoyon bo‘ladi. Turizmning mahalliy aholi uchun ham katta foydasi bor. Ular ish bilan ta‘minlanadi, turli millat, elat va xalq vakillari bilan muloqotda bo‘ladilar va ularning turli an‘ana va qadriyatlari bilan tanishadilar, doimiy daromad olib turish imkoniyati ega bo‘ladilar, mahsulotlarni sotish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, mahalliy aholi imkon qadar o‘zlarining an‘ana va qadriyatlarini namoyish qilish uchun uni saqlab qoladilar va unitilganlarini tiklaydilar, mehmon kutishning jozibador an‘analarini tiklash bilan birga mehmondorchilik an‘analarini takomillashtirib boradilar. Oxir oqibatda mahalliy aholining dunyoqarashi, madaniy saviyasi ham mutassil o‘sib boradilar. Turizmning rivojlanishi davlat uchun ham juda foydalidir. Xususan u turizmni rivojlantirish evaziga o‘z iqtisodiyotining yuksalishiga erishadi, davlat byudjetiga tushumlarning ko‘payishini ta‘minlaydi, tabiiy resurslarni asrab-avaylashga erishadi, mamlakatning ijtimoiy barqarorligini ta‘minlashga harakat qiladi va unga erishadi, xalqlararo aloqalarga erishadi, madaniy aloqalar kengayadi, valyuta tushumi ko‘payadi va h.k. Turizm mahalliy aholi hayotiga ijobiy hamda salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Ijobiy xususiyatlari quyidagilardan



iborat: – ish o‘rinlarini yaralishi; – daromadni ko‘payishi, mahalliy aholini yashash darajasini oshishi; – urbanizatsiya jarayonini tezlashishi, shaharcha xizmat, infrastruktura, madaniyat tashkilotlarini rivojlanishi; – ijtimoiy va madaniy jarayonlarining tezlashishi; – mahalliy madaniyat o‘choqlarning yaralishi, xalq ijodiyoti, an‘analari, rusumlarini rivojlanishi; – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga talabni oshishi; – mahalliy madaniy yodgorliklarni tiklanishi va muhofazasi; – tabiiy komplekslarning kengayishi; – mintaqa jozibadorligini oshishi; – mahalliy madaniy hayotni jonlanishi; Salbiy xususiyatlari quyidagilar: - malakasiz mehnat ulushining o‘sishi; - umumjamiyat normasini buzulishi oshishi (ichkilik, fohishabozlik, bezorilik); - oila "eroziyasi" (oilaviy ajralishlar, yoshlarni hayotga yengil qarash kelishmovchiliklar va h.k.); - mahalliy aholi va turistlar o‘rtasidagi va boshqalar.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki yurtimiz jahon sayyohlik bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga qaramasdan, turistlarga qulay sharoit yaratish, servis xizmatini yaxshilash, sayyohlik obidalarining jozibadorligini oshirish va reklamani kuchaytirish darajasi juda past. Shuning uchun bu borada sezilarli o‘shish haqida fikr yuritish ana shu omillarga bog‘liq. Turizm bo‘yicha raqobatbardosh mamlakatlar reytingida dunyodagi (madaniy zaxiralar, arzon infratuzilma, sayyohlik mahsulotlari narxi, xavfsizlik darajasi, xalqaro shaffoflik jihatidan) eng jozibador 140 ta sayyohlik maskani qayd etilgan bo‘lib, ushbu ro‘yxatda Qozog‘iston 85-o‘rin, Qirg‘iziston 116-o‘rin, Tojikiston 119-o‘rinni egallagan, O‘zbekiston esa Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida eng oxirgi o‘rinda turibdi va bu reytingga kiritilmagan. Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki yurtimizda mavjud bo‘lgan barcha turizm sohasini rivojlantirish uchun kerak bo‘ladigan barcha resurslar anchagina yaxshi taraqqiy etgan. Faqatgina yuqorida aytib o‘tilganidek bizda o‘zimizda mavjud turistik salohiyatni boshqalarga isbotlab berishimiz hamda dunyoning eng rivojlangan turizm davlatiga aylantirish eng asosiy dolzarb masala hisoblanadi.

Turistik infratuzilmalar o‘z tarkibiga mehmonxonalar, ovqatlanish korxonalarini, aloqa yo‘llari yig‘indisi, kommunikatsiyalar, tashkilotlar, do‘konlar, sport inshootlarini birlashtiradi va turistik xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar bilan chambarchas holda bog‘langandir. Turistik infratuzilmaning turistik zaruriy shart sharoitlarini, sayyohlarning xavfsizligi, sog‘lik salomatligini ta‘minlashga qaratilgan. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki turizm bugungi kunda eng daromadli sohalardan biri sifatida tan olinmoqda. Shu jihatdan ko‘pchilik davlatlar tomonidan turizmni rivojlantirish borasida bir qancha dasturlar ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini oshirishda turizm sohasi ham katta imkoniyatlarga ega. Asosan xalqaro turizmni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijasida turizm mamlakatimizda yetakchi sohalardan biriga aylanadi.



ADABIYOTLAR:

1. Mirzayev M.A., Aliyeva MT Turizm asoslari. O‘quv qo‘llanma.-T.: O‘zbekiston faylafuslar jamiyati, 2011. Fayzieva SH. Razvitiya turizma v Uzbekistan asosiy yo'nalishlari. // Ekonomicheskiy vestnik Uzbekistan. № 3–4, 2004 yil.
2. Алиева, Г. И. Turizmning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rni / Г. И. Алиева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2017. — № 24.1 (158.1). — С. 3-5. — URL: <https://moluch.ru/archive/158/44595/> (дата обращения: 13.08.2022).
3. <https://moluch.ru/archive/158/44595/> internet sayti
4. Xabibulloxoji Muhammadsolih Alisher o‘g‘li, Sharipova Sevara Xushnud qizi, Sobirova Madina Ilhom qizi, To‘xtasinova Shahlo Ilhomboy qizi- SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE
5. Бектурдиев, Ж. К. Turizmni mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o‘rni / Ж. К. Бектурдиев. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016.